



## FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 12 - mart

84-11-163-Q/22

Farg'ona tumani hokimligi

### **Farg'ona tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Dafn etish va dafn ishi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Dafn etish va dafn ishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2011-yil -apreldagi 101-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 25-moddasiga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Farg'ona tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimi o'rinbosari (Teshajonov), Obodonlashtirish boshqarmasi (Bobojonov)larga:

fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

sanitariya qoidalari va me'yorlariga qat'iy rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta'minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni "Yer to'g'risida"gi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilsin.

3. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (Bobojonov)ga:

xizmatlar uchun qat'iy belgilangan tariflar bo'yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko'rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini;

qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo'lgan inshootlarni o'rnatish, obyektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta'minlasin.

4. Belgilansinki, mazkur qaror "Vodil yog'dusi" gazetasida rasmiy e'lon qilinsin hamda tuman hokimligining veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari O‘.Teshajonov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**Sh.Muminov**

Fargʻona tuman hokimining  
2022 yil 12 martdagi  
84-11-163-Q/22-son qaroriga  
1-ilova

**Fargʻona tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini koʻrsatish  
boʻyicha tariflar miqdori**

<b>Tr</b>	<b>Xizmat turi</b>	<b>Oʻlchov birligi</b>	<b>Bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan hisoblanadi</b>
1.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatʻiy nazar katta oʻlchamda)	1 oʻringa	50%
2.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatʻiy nazar kichik oʻlchamda)	1 oʻringa	40%
3.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 oʻringa	bepul
4.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatʻiy nazar 3 yoshgacha)	1 oʻringa	bepul
5.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	bepul
6.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 oʻrin/kunga	bepul